



RUX TUTGAN POLIMERLAR BILAN MODIFIKATSIALANGAN BITUMNI SEM TAHLILI

¹Eshankulov X.N., ²Mamayusupova G.Sh., ³Absalomova M.A.

¹Termiz davlat universiteti fizikaviy kimyo kafedrasi katta o'qituvchisi,

^{2,3}Termiz davlat universiteti kimyo fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Tarkibida rux metall tutgan polimerlar va oltingugurt asosida modifikatsialangan bitumlar olingan. Modifikatsialangan bitumning Skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida $10\mu m$, $100\mu m$ kattalikdagi o'lchamlari modifikatsiyalanmagan bitum bilan o'zaro sirt yuza qismlari solishtirilgan va tahlil natijalari o'r ganilgan.

Kalit so'zlar. Bitum, polimer, oltingugurt, SEM, element analiz

KIRISH


Hozirgi vaqtida ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yo'l tizimida yuklangan yuklarning juda muhim ahamiyatga ega ekanligi, asosan og'ir transport vositalarining hajmining oshishi va ushbu transport vositalari uchun ruxsat etilgan yuk og'irligining sezilarli darajada oshishi, transport vositalariga ta'sir qiluvchi yuk ko'tarish darajasining keskin oshishiga olib keldi [1]. Buning oqibatida bitum yuzasiga ta'sir etuvchi kuchlanishning keskin ortishi tufayli yo'l tizimining aksariyat qismi xizmat muddatining uzoqga bormasligi natijasida buzilishi va yomonlashishiga olib kelmoqda [2]. Turli xil muhit, iqlim, og'ir transport va shinalar bosimi kabi ba'zi sharoitlar asfalt qoplamlarida turli xil buzilishlarga olib keladi. Yo'l qoplamlarida ko'p uchraydigan buzilish sabablari yani yuqori haroratlarda doimiy deformatsiyalanishi, oraliq haroratlarda charchoq yoriqlari va past haroratlarda termik yoriqlarni yuzaga kelishini misol qilsa bo'ladi [3-4]. Hozirgi vaqtida asfalt qoplamlarida uchraydigan buzilishlarning oldini olish yoki kamaytirish uchun turli xil qo'shimchalar qo'shish orqali oldi olinmoqda. Chunki asfalt qoplamlarining zichlashishiga bog'lovchilarning past va yuqori harorat ko'rsatkichlari sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, so'nggi yillarda an'anaviy bitumlarning qarish barqarorligi, issiqlik sezgirligi, elastik harakati va yorilishga chidamliligi kabi ba'zi xususiyatlarini yaxshilash uchun ko'plab tabiiy va kimyoviy qo'shimchalar qo'llanilmoqda [5-6].

So'nggi paytlarda bitum modifikatsiyasida polimer asosidagi qo'shimchalardan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Xususan, ikkita asosiy polimerlar, elastomer va plastomer turlari keng qo'llanilmoqda. Plastomerlar odatda bog'lovchilarning elastik xususiyatlarini yaxshilash va qoplamlarning doimiy deformatsiyaga chidamlilagini oshirish uchun ishlatilgan. Biroq, elastomerlar bog'lovchilarning charchoq va past haroratli yorilishga chidamlilagini yaxshilash uchun ishlatilgan [7].




Tajribaviy qism. Bitumni modifikatsiyalash uchun BND 60/90 markali GOST 22245-90 bitum, (GOST 127-93) oltingugrt va tarkibida rux saqlagan ikkilamchi polimerlardan foydanilgan. Bitumni modifikatsiyalash uchun xavfsizlik talablariga javob beradigan isitiladigan idishda 350 gramm bitum 135-180 °C gacha temperaturada suyuqlangandan so'ng ustiga 97.5 gr oltingugurt va 52.5 gr sarg'ish rangli chuzuluvchan elastik modda qo'shiladi va 120-145 °C haroratda 1-2 soat davomida aralashtiriladi. Tajriba natijasida modifikatsiyalangan bitumni tarkibi va xossalari tahlil qilindi.

Natijalar tahlili. Skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida ZnIPS asosida modifikatsiyalangan bitumni $10\mu\text{m}$, $100\mu\text{m}$ kattalikdagi o'lchamlari sof holdagi bitum bilan o'zaro sirt yuza qismlari solishtirildi va tahlil qilindi.




1-rasm. Modifikatsiyalangan bitumning SEM a) $10\mu\text{m}$, b) $100\mu\text{m}$ va energiya dispersiv spektroskopiysi c) keV-15 o'lchamdagи tahlil natijalari



2-rasm. Modifikatsiyalangan bitumning SEM a) $10\text{ }\mu\text{m}$, b) $100\text{ }\mu\text{m}$ va energiya dispersiv spektroskopiyasi c) keV-15 o'lchamdag'i tahlil natijalari

Modifikatsiyalanganmagan va modifikatsiyalangan bitumlarning element tahlillari



3-rasm. Modifikasiyalangan bitumning tarkibidagi elementlarning $50\text{ }\mu\text{m}$ kattalikdagi o'lchamlarining umumiy (a) va alohida SEM (b) tahlil natijalari keltirilgan.


Modifikatsiyalangan bitum tarkibidagi elementlarning foiz miqdorlari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval.

| Elementlar | Mass% | Atom% |
|------------|-------|-------|
|------------|-------|-------|



| | | |
|------|-------|-------|
| C | 92.80 | 95.69 |
| O | 3.84 | 2.97 |
| Al | 0.48 | 0.22 |
| S | 2.88 | 1.11 |
| jami | 100 | 100 |



4-rasm. Modifikatsiyalangan bitumning tarkibidagi elementlarning $50 \mu\text{m}$ kattalikdagi o'lchamlarining umumiyligi (a) va alohida SEM (b) tahlil natijalari keltirilgan.

5-rasm. ZnIPS asosida modifikatsiyalangan bitumning tarkibidagi elementlarning $50 \mu\text{m}$ kattalikdagi o'lchamlarining umumiyligi va alohida SEM tahlil natijalari keltirilgan.

ZnIPS asosida modifikatsiyalangan bitum tarkibidagi elementlarning foiz miqdorlari 2-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

2-jadval.

| Element | Mass% | Atom% |
|---------|-------|-------|
| C | 73.83 | 87.62 |
| N | 0.34 | 0.34 |
| O | 1.38 | 1.23 |
| Al | 0.41 | 0.22 |
| S | 23.29 | 10.35 |
| Cl | 0.40 | 0.16 |
| Zn | 0.36 | 0.08 |
| Jami | 100 | 100 |

Xulosa. Modifikatsiyalananmagani va modifikatsiyalangan bitumni sirt yuza qismlari SEM va element tahlil natijalari o'rGANilib chiqildi, natijalar tahlilidan ko'rindiki ZnIPS



asosida modifikatsiyalangan bitumning g'ovaklik darajasi modifikatsiyalanmagan bitumga nisbatan yuqori ekanligi yani boshlang'ich moddalarning bir biriga to'liq birikanligi, moddalarning tarkibida qo'shimchalari yo'qligini hamda elementlarning o'zoro birikanligini ko'rish mumkin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Эшанкулов Х.Н., Тураев Х.Х., Умбаров И.А., Жалилов А.Т. Органический полимерный синтез металлов на основе акрилонитрила // Universum: технические науки.-Москва. -2021. №7(88).,-С.112-116.
2. Eshankulov X.N., Turayev X.X., Umbarov I.A., Jalilov A.T. Metallorganik sopolimer sintezi // Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy-texnikaviy jurnal. Buxoro - 2021. № 4.-B.151-156.
3. Eshankulov Kh.N., Turayev X.X., Umbarov I.A., Karimov M. U., Djalilov A.T. Nikel akrilat sopolimerining sintezi // Namangan davlat universiteti "ilmiy axborotnomasi". -2021. №10., -B. 58-62.
4. Эшанкулов Х.Н., Тураев Х.Х., Умбаров И.А. Модификация битума серой и натуральным каучуком и его ик-спектральный анализ // Universum: технические науки.-2022. № 12 (105)., -С.160-165.
5. Eshankulov Kh.N., Turayev X.X., Umbarov I.A., Karimov M. U. The studying synthesis and research of nickel and tin acrylate on the basis of the copolymers // Journal of Pharmaceutical Negative Results -2022. №13(7)., -P. 3271-3285. [Doi: 10.47750/pnr.2022.13.S07.426](https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S07.426). Scopus. CiteScore 2022:0.4.
6. Eshankulov X.N., Turaev X.X., Umbarov I.A. Oltingugurt va tabiiy kauchuk bilan modifikatsiyalangan bitumni IQ-spektri va sem tahlili // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari ilmiy jurnali -O'zMU xabarlari. -2022. №3(2)., -B-371-374.
7. Turayev Kh.Kh., Eshankulov Kh.N., Umbarov I.A., Kasimov Sh.A., Nomozov A.K., Nabiev D.A. Studying of Properties of Bitumen Modified based on Secondary Polymer Wastes Containing Zinc // International Journal of Engineering Trends and Technology. -2023. № 9(71)., -P.248-255. [Doi.10.14445/22315381/IJETT-V71I9P222](https://doi.org/10.14445/22315381/IJETT-V71I9P222). Scopus. CiteScore 2023:1.1.